

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

*Elektron nashr,
616 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari	31
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxлари strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	35
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks	42
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
Elektron tijoratnini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari tahlili.....	57
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	63
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	70
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
The role of sports marketing in training leadership personnel in the sports management system.....	75
B.Y.Hamraev	
Sanoat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari	79
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi	85
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования	95
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Пиримкулов Фирдавс Шухратович	
Ko'pkari ot sporti o'yini chavandozlari sport kiyimini ishlab chiqish uchun tavsiya etilayotgan matolarning xususiyatlari tahlili	102
Musayeva Lobar Sayfullayevna, Po'latova Saboxat Usmanovna	
Оценка технико-экономических показателей автономной фотоэлектрической установки с устройством очистки от снега.....	107
Юлдошев Исроил Абриевич, Рустамова Шахноза Шухрат кизи, Ботиров Бозорбек Мусурмон угли, Жураев Обид Шавкатович, Атоева Мохинур Амриллаевна	



Some considerations about the specific features of advertising texts.....	116
Mustaqimova Kunduz Sobirovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyoti tahlili.....	121
Tangriev Izzat Raxmatullaevich	
Fransuzcha va o'zbekcha terminlar vektori asosidagi semantik o'xshashlik.....	125
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Abduaxadova Zilola Jamoliddinovna	
Sayyohlik tilining raqamli tadqiqi: fransuz va o'zbek terminlarining multimodal vektor va vizual xaritalanishi.....	131
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
Обеспечение финансовой устойчивости предприятий: проблемы и решения	136
Аллаберганов Зокир Гойибович	
Qurilish korxonalarini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishdagi muammolar	142
Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
Innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapitali	149
Bozorova Ozoda Raximovna	
Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish	154
Berdiyev Akram O'ktamovich	
Yashil buxgalteriya hisobi va ekologik masalalarga oid xalqaro talablar va yondashuvlar	163
Eshquvvatova Muxlisa Avaz qizi	
Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlari auditida muhimlik va risk darajasini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish	169
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Chizmageometriya fanida gamifikatsiya va didaktik o'yinlarning samaradorligi.....	174
Yo'ldashev Solmonjon Iqboljon o'g'li	
Tijorat banklarining nodepozit moliyaviy resurslarini optimallashtirish	179
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Теоретические аспекты, причины и специфика безработицы (на примере Республики Узбекистан)	186
С.Э. Холмуратов	
Xalqaro oziq-ovqat bozoridagi raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga oid xorij tajribalari	191
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
O'zbekistonning butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va uning soliq tizimiga ta'siri	202
Qurbonov Muxiddin Abdullaevich	
Qoraqalpog'istonda mehmonxona xo'jaligining hozirgi holati tahlili	207
Xalimova Fayoz Nafasovna	
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati.....	212
Norboyeva Mahliyo Rustamovna, Komiljon Baxromov Muzaffar o'g'li	
Method of drying melon using solar radiation and a household solar-infrared dryer.....	216
Khakimova Sabina Shamsiddin qizi, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, Yangiboyev Fayoz G'aybulla o'g'li	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirish istiqbollari	227
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	



Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	
Прямые иностранные инвестиции как основной фактор повышения конкурентоспособности экономики стран	238
Наврузов Икрам Абдуллаевич	
Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	243
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Tayyor mahsulotlar hisobi bo'yicha xorij tajribasi va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	248
Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li, Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
Sanoat korxonalarida asosiy vositalar qadrsizlanishi va eskirishini hisobga olishni optimallashtirish.....	255
Kurbonova Shaxrinov Avazxonovna	
Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish	262
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Digital transformation in public sector: advantages and challenges of the integration.....	266
Abdurakhmanova Sevinch	
Стратегическое планирование и предсказание результатов деятельности организации.....	271
Алимов Бехзоджон Наврузжонович	
Влияние привлечения инвестиций в национальную экономику на повышение конкурентоспособности предприятий.....	277
Каримова Дилафруз Садирдин кизи	
Nomoddiy aktivlar auditida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	283
Rozmatova Umida Yuldashevna	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish.....	290
X.A.Raximov	
"Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning innovation mexanizmlari va normativ asoslari"	294
Karabaev Sanjar Abdusamatovich	
Tibbiyot muassasalarida iqtisodiy barqarorlikning dinamik tahlili	302
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	
Korxona faoliyatini optimallashtirishdagi iqtisodiy tahlilning roli va ahamiyati.....	308
Sattorov Mirjahon	
Роль контекстного маркетинга в условиях ограниченной аудитории и дефицита ресурсов.....	313
Дебердиев Анвар	
O'zbekistonda korxonalarning iqtisodiy barqarorligini raqamli texnologiyalar yordamida oshirish	319
Iminova Nargizaxon Akramovna, Mo'ydinov Ma'murjon Mansurjon o'g'li	
Jahon amaliyotida eksport moliyalashtirishi: uning shakllari, afzalliklari va kamchiliklari	328
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Ramli transformatsiya va korxonaning barqarorligi	333
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.....	342
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	



Роль цифровой эпохи в банковской сфере	346
Максудова Шахзода	
Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar va ekologik barqarorlik.....	350
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy modernizatsiya va uning davlat rivojlanishiga ta'siri	355
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Международный опыт: применение корпоративного менеджмента в государственном управлении развитых стран	360
Махмудова Севара Улугбековна	
Carbon markets and agribusiness: assessing the role of emissions trading in promoting sustainable agricultural practices.....	366
Mubina Toirova	
Standartlashtirishda nanotexnologiyalarning o'rni va ahamiyati	371
Ahmedova Sitara Asqar qizi	
Sut mahsulotlarini saqlash jarayonini boshqarish tizimining barqarorlik masalasi.....	376
Sabirov Ulugbek Kuchkarovich, Oqilov Azizbek Kozimjon o'g'li	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	392
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Alyuminiy ion energiya saqlaydigan qurilmalarning afzalliklari	399
Bafoev Abduhamid Hoshim o'g'li	
Buxgalteriya axborotining investisiya qarorlarga ta'siri.....	403
Rahmatova Shahnoza Shukurovna	
Комплексный подход к оценке и обеспечению финансовой безопасности текстильных предприятий.....	408
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
Markaziy osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish: O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlil	416
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
Temir yo'l transportini rivojlantirishda xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari	422
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
IoT (Internet of Things) texnologiyalari va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi	428
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich, Yqubov Bobur Mamasobir o'g'li	
Improvement of preparation of accounting policies in joint-stock companies	433
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish.....	437
Samadov Askarjon Nishonovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining v.z. vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	444
Kamola Xaydarova	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	449
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
Korxonalarni qayta tashkil etishda moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha xalqaro tajriba, uni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	456
Davletov Ikram Raximberganovich	



Qoraqalpog'iston respublikasida turizm rivojini ta'minlovchi iqtisodiy va tashkiliy choralarni mukammallashtirish	462
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
Milliy iqtisodiyotda fond bozorini rivojlantirish istiqbollari	468
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Дифракция и отражение упругих поперечных волн в изотропной среде с жёсткой границей	476
Салиев А.А., Кеунимжаев М.К.	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligi va amaliy holati tahlili	481
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Aralash tolalardan tayyorlangan iplarning mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish	486
Nurboev Rashit Xudoyberdievich, Salimov Shuhrat Halimovich, Bozorov Rustam Rasulovich	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar	491
Khusniddin Egamnazarov	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	498
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Jismoniy shaxslar soliq ma'muriyatchiligining nazariy masalalari.....	505
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Ibragimov Boburshox Boxodir o'g'li, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Digital Transformation in Public Sector: Advantages and Challenges of the Integration.....	511
Abdurakhmanova Sevinch	
Важность проекта "Умный город" в Узбекистане.....	517
Акбаржон Иминов	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	522
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	530
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Влияние цифровизации на сокращение теневой экономики: возможности и ограничения	536
Срожиддинова З.Х., Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Строительство здания с ограждающей конструкцией из энергоэффективных мелкоштучных трехслойных блоков.....	540
Акрамов Х.А., Тохиров Ж.О.	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового Узбекистана.....	546
Умаров Б.С.	
Современные тенденции и перспективы повышения износостойкости футеровок в горно-размольных установках	556
Акмал Жуманазаров, Илхом Эгамбердиев, Элбек Очилов, Маъруф Саибов	
Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	562
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Habibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	570
Hamroyev Sherzod Axtamovich	



Iqtisodiy islohotlar jarayonida tovar va xizmatlar importining narxlar shakllanishiga ta'siri	577
Bababekova Gulchexra Baxtiyorovna	
Теоретические вопросы инвестиционного обеспечения центров инновационного роста региона	584
Умаров Б.С	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligi va amaliy holati tahlili	591
Axmedov Shoymurod	
Lazer nurlari ta'sirida wet-blue charm yarim mahsuloti xususiyatlarining o'zgarishi	596
, Qodirov T.J, Azimov J.Sh, Yusupova D.N	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	601
Islomova Dilrabo Salomovna	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari	606
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Ekspart faoliyatini rivojlantirish: global tajribalar va milliy imkoniyatlar	609
D.E.Qarshiev	



EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: GLOBAL TAJRIBALAR VA MILLIY IMKONIYATLAR

D.E.Qarshiev

ISFT instituti PhD dotsenti

Orcid kodi:0009-0003-0473-4693

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksport faoliyati va uning mohiyati yoritilgan. Shuningdek rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport faoliyatini tashkiliy moliyaviy jihatlarini tahlil qilingan. O'zbekistonda eksport ko'rsatkichlari va ularni mohiyati tahlil qilingan. O'zbekistonda eksport faoliyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, tashqi savdo, eksportni moliyalashtirish, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xalqaro transport koridorlari, eksport subsidiyalari, qishloq xo'jaligi sohasi eksporti, yengil sanoat sohasi eksporti, eksport faoliyatida xorij tajribasi.

Abstract: This article examines export activities and their essence. Organizational and financial aspects of export activities in developed and developing countries were also analyzed. Export indicators and their importance in Uzbekistan were analyzed. Suggestions and recommendations for improving export activities in Uzbekistan were given.

Keywords: export, foreign trade, export financing, export support, international transport corridors, export subsidies, agricultural export, light industry export, foreign experience in export activities.

Аннотация: В данной статье рассматривается экспортная деятельность и ее сущность. Также были проанализированы организационные и финансовые аспекты экспортной деятельности в развитых и развивающихся странах. Проанализированы показатели экспорта и их значимость в Узбекистане. Были даны предложения и рекомендации по совершенствованию экспортной деятельности в Узбекистане.).

Ключевые слова: экспорт, внешняя торговля, экспортное финансирование, поддержка экспорта, международные транспортные коридоры, экспортные субсидии, экспорт сельскохозяйственной продукции, экспорт легкой промышленности, зарубежный опыт экспортной деятельности.

KIRISH

Eksport iqtisodiyotning muhim strategik sohasi hisoblanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ish o'rinlarini yaratish, valyutani ko'paytirish va global bozorlar bilan integratsiyalashuvning asosiy vositalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eksport yo'nalishining samarali rivojlantirilishi zarur shartdir.

Jahon iqtisodiyotidagi raqobat keskinlashib borayotgan bugungi sharoitda eksportning diversifikatsiya qilinishi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning kengayishi va innovation texnologiyalarning qo'llanilishi davlat eksport siyosatining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Eksport faoliyatini takomillashtirish va unga tashkiliy moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali ta'sir etish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish davomida Ye.Yu.Shirokova tomonidan yozilgan Rossiyada hududiy eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid maqolani o'rgandik.¹ N.O.Yakushevning eksport faoliyatini hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni haqida yozilgan ilmiy maqolani o'rgandik.² N.R.Kuziyevaning O'zbekistonda eksport qiluvchilarni soliq imtiyozlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan ilmiy maqolani o'rgandik.³ Xitoy eksportini takomillashtirishda intensiv hamda ekstensiv usullardan foy-

1 Широкова Е. Ю. Поддержка региональной экспортной деятельности (кейсы регионов-лидеров по росту экспортной квоты) // Научный вестник Южного института менеджмента. – 2019. – № 1. – С. 39-52.

2 Якушев Н. О. Роль экспортной деятельности в экономическом развитии регионов // Экономика и социум. – 2015. – № 2-5 (15). – С. 310-314.

3 Kuzieva, Nargiza. «Кузиева НР ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКСПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ СОЛИҚЛАР ВОСИТАСИДА РАФАБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.» Архив научных исследований 24 (2020).

dalanganlik haqida Mercedes Kampi, Marko Duenas, Le Li, Xuabin Vular tomonidan yozilgan ilmiy maqola tahlil etildi.⁴ Chad Boun, Meredit Krouli tomonidan yozilgan Xitoyning eksport ko'rsatkichlariga JST ning ta'siri haqidagi ilmiy maqola tahlil qilindi.⁵ Puttibarncharoensri Piyawan ba Piyathida Chaipunyaalarning ilmiy maqolasi tahlil etildi.⁶ Uilyamson Nicholas, Nir Kshetri va Timothy Wilkin-sonlarning. "AQShda eksportni rag'batlantirishning so'nggi tendentsiyalari" deb nomlangan ilmiy maqola tahlil etildi.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYAS

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro savdo markazi (ITC), Jahon banki, BMTning UNCTAD tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan raqamli ma'lumotlardan foydalanildi. Eksport hajmlari, geografiyasi, tovar tarkibi, tashqi savdo balansini tahlil qilishda MS Excel va SPSS dasturlarida statistik hisob-kitoblar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport faoliyati keng ma'noda qaralganda, bu faqatgina mahsulot va xizmatlarni sotish emas, balki mamlakatning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, logistika, marketing, valyuta siyosati va huquqiy kafolatlarni qamrab olgan kompleks iqtisodiy faoliyatdir.

Eksport faoliyatining asosiy vazifalari quydagilarni tashkil etadi:

- mahsulotlar va xizmatlarni xalqaro bozorga chiqarish;
- iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- mamlakatda valyuta tushumini ta'minlash;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirish.

Eksport faoliyatini tashkil etish iqtisodiyotning global tizimga integratsiyalashuvi, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror o'sishga erishishning muhim vositasidir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maqsadli bozor tahlili, sifatli mahsulot, huquqiy muhofaza, samarali logistika va moliyalashtirish mexanizmlarining jips tizimiga bog'liq.

O'zbekiston uchun eksportni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish, balki texnologik, institusional va madaniy yangilanish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda eksport salohiyatini rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishgan ayrim mamlakatlarning tajribasi, bu sohadagi davlat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari hamda ulardan chiqarilgan xulosalar eksport strategiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy, iqtisodiy rivojlanish yo'lida eksportga yo'naltirilgan industrial siyosat orqali jahon bozorida yetakchi mavqega erishgan mamlakatdir. "Made in China 2025" davlat dasturi yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishni ko'zda tutadi.

Xitoy eksport strategiyasining asosiy jihatlari quydagilarni qamrab oladi:

- davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlari orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash;
- innovasion tarmoqlarga yo'naltirilgan chet el investisiyalarni jalb qilish mexanizmlari;
- logistika infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligi.

"Made in China" brendi orqali arzon mehnat kuchi va eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatini amalga

oshirdi. Xitoy hukumati eksport qiluvchi korxonalarni soliq imtiyozlari, yer ajratish, infratuzilma bilan ta'minlash va valyuta siyosati orqali rag'batlantirdi. Natijada, 2000 yilda 249 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2023 yilga kelib 3.5 trln dollardan oshdi.

4 Campi, Mercedes, et al. «Diversification, economies of scope, and exports growth of Chinese firms.» arXiv preprint arXiv:1801.02681 (2018).2018

5 Boun, Chad P., and Meredith A. Crowley. «China's export growth and the China safeguard: threats to the world trading system?.» Canadian Journal of Economics/Revue canadienne d'économie 43.4 (2010): 1353-1388.

6 Puttibarncharoensri, Piyawan, Piyathida Chaipunya, and Vilasiness Srisarkun. «EXPORT PROCESS IMPROVEMENT.» Journal of Supply Chain Management: Research and Practice 15.2 (2021).

7 Uilyamson, Nicholas C., Nir B. Kshetri va Timothy J. Wilkinson. «AQShda eksportni rag'batlantirishning so'nggi tendentsiyalari.» Marketing menejmenti jurnali 21.2 (2011): 153-166.



O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida eksport salohiyati oshib bormoqda. Eksport faoliyatiga nazar tashlasak tashkiliy jihatida hali ham kamchiliklar mavjud. Eksport faoliyatini moliyalashtirishda ba'zi bir muammasalar ko'zga tashlanadi. Xususan eksportni moliyalashtiruvchi eksport import banki faoliyat yuritmayotganligi ya'ni tashkil etilmaganligi eksport qiluvchilarni yetarli-cha moliyalashtirilmayotganligidan darak beradi.




1-diagramm: O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari.⁸

2010 yildan 2024 yilgacha bo'lgan eksport ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda eksport hajmida barqaror va izchil o'sish kuzatilmoqda. Agar 2010 yilda umumiy eksport hajmi 13,023 mln. AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 27,356 mln. AQSH dollarga yetgan. Bu qariyb ikki barobar o'sish bo'lib, milliy eksport salohiyatida jiddiy o'sish ro'y berganini anglatadi.

O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari 2015-2017 yillar orasida sezilarli darajada pasaygan. Bu davrda xalqaro tovar narxlarining tushishi, Rossiya va Xitoy kabi hamkor davlatlar iqtisodiyotidagi sekinlashish, shuningdek ichki iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichda boshlanishi ta'sir ko'rsatgan. Eksport ko'rsatkichlari 2019 yildan keyin jadal sur'atlar bilan o'sgan. Xususan, 2021-2023 yillar orasida yillik o'sish sur'ati 15-25% ni tashkil etdi. Bu eksport siyosatida diversifikatsiya, infratuzilma yangilanishi va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanishi samarasi hisoblanadi. Shuningdek O'zbekiston eksporti tarkibida xizmatlar va qayta ishlangan mahsulotlar hisssasi o'smoqda. O'zbekiston eksportining asosiy qismini avval faqat mineral resurslar tashkil qilgan bo'lsa, so'nggi yillarda xizmatlar, tayyor mahsulotlar, kimyo va mashinasozlik sohalarning ulushi ortmoqda.

2-diagramma; O'zbekiston eksportining tarkibiy tuzilmasi.⁹



⁸ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston eksportining asosiy qismini energiya mahsulotlari (26.8%), sanoat tovarlari (21.7%) va oziq-ovqat bo'lmagan xomashyolar (19.3%) tashkil etmoqda. Biroq, xizmatlar (13.1%) va yuqori qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar ulushi pastligicha qolmoqda.

Bugungi kunda eksportda tabiiy resurslarga (gaz, neft, paxta tolasi) haddan tashqari tayanilganlik kuzatilmoqda. Bunday bog'liqlik jahon bozoridagi narxlar tebranishi tufayli eksportdan tushadigan daromadni beqarorlashtiradi. Shuning uchun imkon boricha oziq-ovqat va kimyo sanoati mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha yangi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni tayyor mahsulotga aylantirishni kengaytirish zarur.

Jahon miqyosida xizmatlar, ayniqsa IT xizmatlari va BPO (Business Process Outsourcing) sohalari tez sur'atlarda rivojlanmoqda. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirish muhim:

- T xizmatlarini eksport qilish uchun soliq imtiyozlarini kuchaytirish;
- IT parklar va texnoparklar sonini oshirish;
- ingliz tilini chuqurlashtirilgan o'qitish orqali kadrlarga eksportga yo'naltirilgan malaka berish;
- turizmni "xizmatlar eksporti" sifatida ilgari surish.

Bugungi kunda O'zbekiston eksportining katta qismi MDH davlatlari va Xitoy bilan bog'liq. Shu bilan birga, eksport geografiyasini kengaytirish orqali risklarni kamaytirish mumkin, Janubiy Osiyo (Hindiston, Pokiston), Yaqin Sharq (BAA, Saudiya Arabistoni) va Afrika davlatlari bilan erkin savdo muzokaralarini faollashtirish kerak, eksportchilarni xalqaro ko'rgazmalarga jalb qilish va B2B uchrashuvlar tashkil etish, O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi yagona digital platformani yaratish zarur.

Eksport faoliyati zamonaviy talablarga mos keluvchi rivojlangan mamlakatlardagi holatni tahlil qilsak quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz.

Janubiy Koreya kichik, ammo texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan davlat sifatida o'zining eksport modelini shakllantirdi. Hukumat o'z vaqtida "chaebol"lar - yirik sanoat konglomeratlariga uzoq muddatli kreditlar va imtiyozlar bergan. Shu orqali "Samsung", "LG" kabi kompaniyalar global eksportchilar darajasiga yetkazilgan. Janubiy Koreya eksportining 70% dan ortig'i yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlardan iborat.

Germaniyaning eksport salohiyati „sifatli ishlab chiqarish“ tamoyiliga asoslanadi. Mamlakat asosan sanoat uskunalari, avtomobilsozlik va kimyo mahsulotlarini eksport qiladi. "Mittelstand" deb nomlanuvchi o'rta biznes vakillari eksportda muhim rol o'ynaydi. Bu esa innovatsion yondashuv va sifatli kadrlar tayyorlash tizimi bilan bog'liq.

Hindiston xizmatlar eksporti, xususan IT va BPO (Business Process Outsourcing) sohasida dunyo bozorida yetakchilardan biri bo'lib qoldi. Infosys, TCS kabi kompaniyalar raqamli xizmatlar orqali AQSH va Yevropa bozorlariga yetib bordi. Hindistonda bu jarayon ingliz tilini yaxshi biladigan arzon mehnat kuchi va hukumat tomonidan yaratilgan IT klasterlar orqali boshqarildi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashda "erkin iqtisodiy zonalar" katta rol o'ynadi. Singapurda xalqaro logistika, xizmatlar eksporti va moliyaviy markazlar rivojlangan bo'lsa, Malayziyada texnologik parklarda joylashgan kompaniyalar eksportdan daromad oluvchi mexanizm sifatida ishlamoqda.

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston eksportining asosiy qismini quyidagi mahsulotlar tashkil etmoqda:

- Energetika va yoqilg'i resurslari - 26.8%
- Sanoat tovarlari (qurilish materiallari, kimyo mahsulotlari) - 21.7%
- Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xomashyosi - 19.3%
- Xizmatlar - 13.1%
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari - 10.4%
- Mashina va uskunalar - 4.6%
- Bu ko'rsatkichlar eksportda xomashyo ulushi yuqoriligini, tayyor mahsulotlar ulushi esa pastligicha qolayotganini ko'rsatadi.



O'zbekistonda eksport faoliyatini takomillashtirishda birinchi navbatda eksportni tashkiliy moliyaviy jihatlarni zamonaviy meyorlarga moslashtirish, kichik biznes sub'yektlarini eksport faoliyatiga keng jalb qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek tashqi investisiyalarni O'zbekistondagi lokomotiv sohalarga yo'naltirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda eksport faoliyatini takomillashtirish uchun quydagi muammolarni bartaraf etish zarur:

- mahsulotlar va xizmatlarni sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- logistika va transport infratuzilmasini yetarli darajada zamonaviylashtirish;
- eksport faoliyatidagi bojxona va huquqiy rasmiylashtirish tartiblarini yanada soddalashtirish;
- eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish. Xususan "O'zeksimbank" va Milliy eksport kredit agentligini tashkil etish hamda qisqa muddatli imtiyozli eksport kreditlarini joriy etish;
- eksport qiluvchi kichik tadbirkorlik sub'yektlariga marketing va tashqi bozorlar haqidagi ma'lumotlarni beruvchi markazlar faoliyatini kengaytirish.

Eksport faoliyati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etish uchun bozor tahlili, mahsulot sifatini oshirish, logistika va transport tizimini rivojlantirish, huquqiy va bojxona masalalarini hal qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qator choralar ko'rilmogda, ammo hali ham bir qator muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish orqali mamlakatning eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabr karori. "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Широкова Е. Ю. Поддержка региональной экспортной деятельности (кейсы регионов-лидеров по росту экспортной квоты) //Научный вестник Южного института менеджмента. – 2019. – №. 1. – С. 39-52.
3. Якушев Н. О. Роль экспортной деятельности в экономическом развитии регионов //Экономика и социум. – 2015. – №. 2-5 (15). – С. 310-314.
4. Kuzieva Nargiza "Ўзбекистонда экспорт операцияларини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари." Архив научных исследований 24 (2020).
5. Li, Tan, Larri Qiu va Ying Xuye. «Xitoyning tashqi savdo siyosatini tushunish: adabiyotlarni ko'rib chiqish.» Xitoyda iqtisodiyot chegaralari 11.3 (2016): 410.
6. Puttibarncharoensri, Piyawan, Piyathida Chaipunya, and Vilasiness Srisarkun. «EXPORT PROCESS IMPROVEMENT.» Journal of Supply Chain Management: Research and Practice 15.2 (2021).
7. Uilyamson, Nicholas C., Nir B. Kshetri va Timothy J. Wilkinson. «AQShda eksportni rag'batlantirishning so'nggi tendentsiyalari.» Marketing menejmenti jurnali 21.2 (2011): 153-166.
8. Campi, Mercyedes, et al. «Diversification, economiyes of scope, and exports growth of Chinese firms.» arXiv preprint arXiv:1801.02681 (2018).2018
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

muhandislik & iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100